

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2025-yil, oktyabr.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadilloevich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbasxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	
O'ZBEKISTONNING 12 YILLIK TA'LIM TIZIMIGA QAYTISH ISLOHOTI	118
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich	
MAMLAKATNING XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAGI MAVQEINI YAXSHILASHDA IQTISODIY MUSTAHKAMLIKNING AHAMIYATI	123
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
XALQARO SAVDODA MARKETING ROLI: EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	125
Qurolov Maqsud Obitovich	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	130
B.Izbosarov, N.Hakimova	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MASALASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	132
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
DYUZDO SPORTIDA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	135
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
SANOATDA QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI OSHIRISH	138
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOSHQARUVI UCHUN SUN'IIY INTELLEKTNING KENGAYTIRILGAN BASHORATLI TAHLILI	142
Esanova Shohida O'tkirovna	
PROSPECTS OF USING CREDIT CARDS IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	146
Mamatova Sevara Ilhom qizi	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG'URTALASH MEXANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI	151
Xalilova Feruza Jamolovna	



УЯЗВИМОСТИ В ПЛАТЕЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	155
Садыков Азиз Миршарапович	
КРИТЕРИИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	160
Жусупова Анжим Тансыкбаевна	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISH: AVTOMOBILSOZLIK SEKTORI BO'YICHA ILMIY YONDASHUV	163
Allabergenov Azamat Joldasbayevich	
SUD-HUQUQ SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING INSON MANFAATLARIGA TA'SIRI	167
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



SUD-HUQUQ SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING INSON MANFAATLARIGA TA'SIRI

Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar tahlil qilinadi. Mazkur islohotlar sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, odil sudlov samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, shuningdek sud faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan. Maqolada Sudyalar oliy kengashi faoliyatining takomillashtirilishi, Oliy sud tizimidagi o'zgarishlar, iqtisodiy sudlar va dastlabki eshituv instituti joriy etilishi, sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi, shuningdek "Bir sud – bir instansiya" tamoyilining tatbiqi kabi muhim yangiliklar yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada inson huquqlarini himoya qilish, qamoqqa olish va tergov muddatlarini qisqartirish, jinoyat ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarish institutini bekor qilish kabi chora-tadbirlarning sud-huquq tizimidagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqilgan. Mualliflar sud-huquq sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash, odil sudlovni barqarorlashtirish va aholining sud tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilayotganini ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: sud-huquq tizimi, odil sudlov, sud hokimiyati, sudyalik mustaqilligi, inson huquqlari, Sudyalar oliy kengashi, iqtisodiy sudlar, huquqiy islohotlar.

Abstract. This article analyzes the recent reforms in the judicial and legal system of the Republic of Uzbekistan. The reforms aim to ensure the independence of the judiciary, enhance the effectiveness of fair trials, and protect the rights and legal interests of citizens. Key measures include the establishment of the Supreme Council of Judges, the merger of the Supreme Court and Supreme Economic Court, the introduction of economic courts and the preliminary hearing institute. The selection of candidates for judicial positions through a competitive process, the principle of "One Court – One Instance," as well as measures to reduce detention and preliminary investigation periods, contribute to strengthening fair justice. These reforms enhance the protection of human rights, increase public trust in the judicial system, and ensure the supremacy of law.

Keywords: judicial system, fair trial, judiciary, judicial independence, human rights, Supreme Council of Judges, economic courts, legal reforms.

Аннотация. В статье анализируются недавние реформы судебной системы Республики Узбекистан. Реформы направлены на обеспечение независимости судебной власти, повышение эффективности справедливого судопроизводства и защиту прав и законных интересов граждан. Основные меры включают создание Верховного совета судей, объединение Верховного суда и Верховного хозяйственного суда, введение экономических судов и института предварительного слушания. Отбор кандидатов на должности судей через конкурсную систему, принцип «Один суд – одна инстанция», а также меры по сокращению сроков содержания под стражей и предварительного расследования способствуют укреплению справедливого судопроизводства. Эти реформы способствуют защите прав человека, повышению доверия общества к судебной системе и обеспечению верховенства закона.

Ключевые слова: судебная система, справедливое судопроизводство, судебная власть, независимость судей, права человека, Верховный совет судей, экономические суды, правовые реформы.

So'nggi yillarda O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'nalishida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon qabul qilinib, unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida qator kompleks chora-tadbirlar ko'rildi. Ushbu chora-tadbirlar sud-huquq sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Jumladan, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirish darajasini oshirish hamda sud-huquq tizimini isloh qilish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi.

Yagona sud amaliyotini yo'lga qo'yish maqsadida Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi faoliyati fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasida birlashtirilib, sud hokimiyatining yagona oliy organi — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. Shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish maqsadida davlat organlari qarorlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (yoki harakatsizligi) ustidan shikoyatlarni ko'rish, ya'ni ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishga vakolatli ma'muriy sudlar tashkil etildi.

Sudlar tuzilmasi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar hamda iqtisodiy sudlar negizida viloyat darajasidagi umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi. Shu bilan birga, sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvi saqlab qolindi, bu esa sud jarayonlarining sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Investorlar huquqlarini sud orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish maqsadida protsessual qonunchilikka iqtisodiyot sohasidagi investorlar va davlat organlari o'rtasidagi investitsiya shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar hamda raqobatga oid ishlarning sudlovga taalluqliligiga doir normalar kiritildi. Shu orqali yirik investorlarga taalluqli nizolar taraflarning roziligiga ko'ra Oliy sudning investitsiyaviy nizolarni va raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sudlov tarkibi tomonidan ko'rilishi tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi tugatilib, uning o'rniga sudyalarning hamjamiyatining organi — O'zbekiston Respublikasi Sudyalarning oliy kengashi tashkil etildi. Mazkur Kengash sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsiplariga rioya etilishini ta'minlash va sud tizimining samarali faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, so'nggi to'rt yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida sezilarli va dadil qadamlar qo'yildi. Ushbu yo'nalishda ustuvor masalalarni hal etish maqsadida 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Bu hujjatlar qonun ustuvorligini mustahkamlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish borasidagi strategik ahamiyatga ega muhim chora-tadbirlar sifatida baholanishi mumkin. Jumladan, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalarning oliy kengashi tashkil qilindi. Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi va 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish vakolati berildi. Shuningdek, sudyalik lavozimida faoliyat yuritish muddati ilk marotaba besh yil, keyin o'n yil va muddatsiz tarzda belgilandi.

Sudlarning moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish vakolatlari adliya organlaridan Oliy sudga o'tkazildi. Jinoyat ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi va shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud jarayonida isbotlangan dalillarga asoslanishi qat'iy belgilandi. Qiynoqqa solish, ruhiy yoki jismoniy bosim o'tkazish va boshqa zo'ravonlik holatlari qat'iyan taqiqlandi.

Inson huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini amalga oshirish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Sudlar faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash uchun 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalarida ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari qisqartirildi.

Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi ham joriy qilindi. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini onlayn tarzda yoritib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, birinchi marotaba sudyalikka tayinlanadigan nomzodlarni ko'rib chiqish muqobilik asosida amalga oshiriladi. Bu tizim malakali sudyalarning korpusini shakllantirish, sud apparati xodimlarini tayyorlash va sud tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, odil sudlovning yuqori darajaga ko'tarilishi va sudni haqiqiy "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish imkonini yaratadi.

Investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar endilikda faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi va prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki uning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlarda qatnashishi mumkinligi belgilandi.

Shuningdek, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiyasi tugatildi. Ortiqcha sud bosqichlari bekor qilinib, "Bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy etildi. Tumanlararo sudlarning qarorlari viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlari esa Oliy sudning sudlov hay'ati tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqiladi.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda sud-huquq sohasi isloh etilib, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Shuningdek, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustunligiga asoslangan huquqiy tizim shakllandi. So'nggi yillarda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovni samarali ta'minlash hamda sudlarning chinakam mustaqilligini kafolatlash borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Ushbu amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga ko'tarildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar avvalo



inson manfaatlari, uning ezgu niyatlari va orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Bu esa inson huquqlari ustuvorligini va har bir shaxsning davlat himoyasida ekanligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Murojaatnomasida ham inson huquqlari va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarning 2021-yilda ham izchil davom ettirilishi belgilangan. Muhtaram Prezidentimiz "Adolat – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi" deb ta'kidlagan. 2021-yildan boshlab joriy etilgan "bir sud – bir instansiya" tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini ta'minlashda asosiy mezon sifatida belgilandi. Ushbu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son'li Farmoni bilan qonunchilikka joriy etilgan edi.

Natijada amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning sud-huquq tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinmoqda hamda aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchi mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т., 2018, 42-бет.
2. Мирзиёев Ш.М.. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. – Т., 2018. – 80 б.
3. В. Mustafoyev. Sud hokimiyati mustaqilligi: Nazariya va amaliyot. – T.: Yuridik adabiyotlar uyi, 2019. – 312 b.
4. A. Rasulev. Huquqiy davlat va odil sudlov tamoyillari. – T.: Adolat, 2018. – 264 b.
5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Judicial Integrity Handbook. – Vienna: UNODC, 2021. – 198 p.
6. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ). European Judicial Systems Evaluation Report. – Strasbourg: Council of Europe, 2022. – 342 p.
7. Tom Bingham. The Rule of Law. – London: Penguin Books, 2011. – 224 p.
8. Brian Tamanaha. On the Rule of Law: History, Politics, Theory. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 180 p.
9. Andrew Ashworth & Mike Redmayne. The Criminal Process. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 520 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100